Annotatsiya: Mazkur maqolada 2025–yilning birinchi choragida xalqaro moliya bozorlarida yuzaga kelgan tahlikali vaziyat, uning kelib chiqish sabablari hamda oqibatlarini tahlil qilinadi. Xalqaro darajadagi bir qator kompaniyalar va ularning investorlarining mazkur davr mobaynida aksiyalardan ko'rgan foyda va zararlariga doir tahliliy ma'lumotlar o'rganilgan. Shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari – brokerlar, dilerlar hamda individual investorlarning bozor holatiga nisbatan yondashuvlari va qarorlari chuqur tahlil etilgan. Bu jarayonda bozor ishtirokchilarining psixologik va strategik reaksiyalari, ular tomonidan qo'llanilgan moliyaviy choralar tahliliy asosda yoritilgan. Maqolada, shuningdek, investorlar hamda bozor ishtirokchilari uchun hozirgi sharoitda moliyaviy xavf-xatarlardan himoyalash bo'yicha nazariy va amaliy takliflar shakllantirilgan. Tavsiyalar investorlarning ehtiyotkorlik siyosatini kuchaytirish, diversifikatsiya, likvidlikni saqlash va uzoq muddatli strategiyalarga rioya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayanadi.

Kalit so'zlar: moliya bozori, indeks, S&P 500, Nasdaq 100, Dow Jones, qimmatli qog'ozlar, aksiya, boj, raqamli iqtisodiyot, investor, emitent, moliyaviy risk, bozor kapitallashuvi, fond birjasi.

Abstract: This article discusses the dangerous situation that occurred in the international financial markets in the first quarter of 2025, as well as the causes and consequences of this situation. The profits and losses experienced by international companies and their investors during this period are analyzed. Attention is also paid to the attitude of other market participants, such as brokers, dealers and small investors, to the current state of the market. At the same time, theoretical and practical proposals are formulated for investors and market participants to protect themselves from financial risks in this situation.

Key words: financial market, index, S&P 500, Nasdaq 100, Dow Jones, securities, stock, duty, digital economy, investor, issuer, financial risk, market capitalization, stock exchange.



Аннотация: В данной статье анализируется кризисная ситуация, возникшая на международных финансовых рынках в первом квартале 2025 года, а также причины её возникновения и последствия. Изучены аналитические данные о прибылях и убытках, понесённых рядом международных компаний и их инвесторов в указанный период. Кроме того, подробно рассмотрены подходы и решения других участников рынка – брокеров, дилеров и частных инвесторов в отношении текущей рыночной конъюнктуры. В процессе анализа особое внимание уделено психологическим и стратегическим реакциям участников рынка, а также финансовым мерам, принятым ими в ответ на нестабильность. В статье также сформулированы теоретические и практические рекомендации по защите от финансовых рисков в нынешних условиях для инвесторов и других участников рынка. Предлагаемые рекомендации основываются на научном подходе к усилению политики осторожности, диверсификации, поддержанию ликвидности и следованию долгосрочным стратегиям.

Ключевые слова: финансовый рынок, индекс, S&P 500, Nasdaq 100, Dow Jones, ценные бумаги, акции, пошлина, цифровая экономика, инвестор, эмитент, финансовый риск, рыночная капитализация, фондовая биржа.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning takomillashuvi natijasida moliya bozoriga kirish va unda faoliyat yuritish imkoniyatlari tobora yaxshilanib bormoqda. 1950-yillardan boshlab moliya sohasiga moliyaviy texnologiyalarning asta-sekin joriy etilishi soha uchun inqilobiy o'zgarish bo'ldi. Dastlab moliya bozorining bevosita ishtirokchisiga aylanish investor va emitentlar, shuningdek, bozor tashkilotchilari uchun bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Bugungi kunda esa ma'lum miqdordagi mablag' evaziga bir necha soniya ichida moliya bozori ishtirokchisiga aylanish mumkin.

"Moliya bozorida investorlar katta daromad olishni istaydilar, biroq ular aktivlar bilan bog'liq xavflarga duch kelishni xohlamaydilar. Bu esa o'z navbatida yanada murakkab investitsiya strategiyalarini qo'llash zarurati keltirib chiqaradi yoki kapitalni investitsiya qilishda odatiy variantlarga nisbatan yangi muqobillarni izlashga undaydi"¹.

Moliya bozori turli darajadagi risklar mavjud bo'lgan maydon hisoblanadi. Ayniqsa, fond bozori sektori investorlarga nisbatan shavqatsiz mexanizmga asoslangan. Fond bozorining tarixiy faoliyatiga nazar tashlansa, investorlar bir necha marotaba o'z mablag'larining katta qismini yo'qotganliklariga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, 1930-yillardagi Buyuk Depressiya davri aynan fond bozori bilan bog'liq bo'lib, 1929–yil 24-oktyabrdagi "Qora payshanba"da bozor ishtirokchilari haddan tashqari spekulyatsiya va bank tizimidagi muammolar tufayli qimmatli qog'ozlar savdolaridan 30 milliard AQSH dollari atrofida zarar ko'rgan. Bu miqdor 1929–yil standarti bo'yicha juda katta ko'rsatkich edi. Taqqoslash uchun, o'sha davrda AQSHning yillik federal budjeti taxminan 3 milliard dollarni tashkil etgan.

Buyuk Depressiya natijasida millionlab sarmoyadorlar o'z jamg'armalaridan ayrildi. Shuningdek, moliya bozorini muvofiqlashtiruvchi subyektlar qatoridan bo'lgan 9 000 dan ortiq banklar inqirozga uchradi yoki butunlay yopildi. Bu holat oddiy aholiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi – ular banklardagi omonatlarini yo'qotdi, ish o'rinlari qisqardi, AQSHda ishsizlik darajasi 25 foizgacha yetdi. Bu zarar nafaqat AQSHni, balki butun dunyo iqtisodiyotini ham chuqur inqirozga olib kirdi. Jahon savdosi keskin qisqardi, ko'plab davlatlarda iqtisodiy tanglik, siyosiy beqarorlik va ommaviy noroziliklar yuzaga keldi².

2008–yilgi global moliyaviy inqiroz ham moliya sektorlariga jiddiy zarba berdi. Butun dunyo bo'yicha tarqalgan ushbu inqiroz fond bozoriga eng katta talofat yetkazdi. 2008–yil davomida dunyo fond bozorlari umumiy qiymati taxminan 30 trillion AQSH dollariga kamaydi – bu tarixdagi eng yirik yo'qotishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, COVID–19 pandemiyasi ham fond bozoriga ta'sirsiz o'tmagan. 2020–yil boshida pandemiya boshlanishi bilan dunyo bo'yicha fond bozorlari keskin qulashga uchradi. Ayniqsa, 2020–yilning fevral–mart oylarida investorlar orasida vahima kuchayib, trillionlab dollar zarar yuzaga keldi. Ushbu davrda global fond bozorlari umumiy hisobda taxminan 18 trillion AQSH dollari miqdorida qiymat yo'qotdi. Bu fond bozori tarixidagi qisqa muddat ichida sodir bo'lgan eng yirik yo'qotishlardan biri sanaladi. AQSH fond bozori bu holatni tarixiy "bozor halokati" sifatida atadi³.

Xalqaro indekslar ham ushbu davrda keskin tushib ketdi:

- S&P 500 indeksi 2020–yil 19–fevraldagi eng yuqori cho'qqidan 23–martgacha 34 foizga pasaydi;
- Dow Jones Industrial Average shu davrda 37 foizga yaqin tushdi;

1 George Abuselidze, Doctor of Economics/ Professor; Anna Slobodanyk, PhD in Economics Batumi Shota Rustaveli State University, Georgia; National University of Life and Environmental Sciences of Ukraine.

2 <https://data.worldbank.org>

3 <https://www.sifma.org>



- FTSE 100 (Buyuk Britaniya) 30 foizdan ortiq,
- DAX (Germaniya) 35 foiz,
- Nikkei (Yaponiya) 30 foizgacha pasaydi.

Shuningdek, Osiyoning boshqa fond bozorlari ham katta yo'qotishlarga duch keldi. 2025-yilning birinchi choragi, ayniqsa aprel oyining boshlari fond bozori uchun tahlikali, yuqori riskli va spekulativ ruhda kechmoqda. Garchi umumiy indekslar nisbatan barqaror o'zgarayotgan bo'lsa-da, yirik kompaniyalar aksiyalarining keskin pasayishi investorlar o'rtasida xavotirni kuchaytirmoqda. Ko'plab investorlar xavfsiz aktivlarga, xususan, oltin va AQSH davlat obligatsiyalariga sarmoya yo'naltirishmoqda. Shu bilan birga, ayrim yirik investitsion fondlar va individual investorlar o'z portfellaridagi aksiyalarning muhim qismini qisqartirib, aktivlarni naqd pul shaklida saqlashni afzal ko'rmoqda⁴.

Masalan, yirik investor Uorren Baffet 2024-yilning to'rtinchi choragida o'zi boshqaradigan Berkshire Hathaway investitsiya fondidagi bir qancha kompaniyalarning aksiyalarini sotgan. Natijada kompaniya balansida 334 milliard AQSH dollari miqdorida naqd pul shakllangan. Fond bozorida bu jarayonlar investorlar uchun yangi signalmi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy bozorlardagi holat, shuningdek, investor va emitentlarning bozorda uchrashi mumkin bo'lgan yo'qotishlari hamda ular bilan bog'liq boshqa munosabatlar ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Bayadyan va Bagdasaryanning fikricha, "kapital bozorining rivojlanishi YeOI (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi) mamlakatlarida iqtisodiy taraqqiyot va barqaror o'sish salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi". Kapital bozorining rivojlanganlik darajasi nafaqat YeOI mamlakatlarining iqtisodiy holatiga, balki umuman barcha davlatlarning iqtisodiy salohiyatini baholashda muhim mezon sifatida e'tirof etiladi⁵.

G. Abuselidzening fikricha, "XXI asr fond bozorining muammolari investorlardan yoki investitsiya maslahatchilaridan mijozning hozirgi holatini baholashdan ko'ra murakkabroq yondashuvni talab qiladi. Ya'ni, tegishli strategiyalarni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi, chunki ko'plab holatlarda mijozlar o'z manfaatlari yo'lida taqdim etilgan tavsiyalarga amal qilish zaruriyatini anglash uchun yetarli kontseptual bilim yoki malakaga ega bo'lmaydilar. Resurslardan oqilona foydalanish va yetarli ta'lim darajasi potentsial investorga fond bozori orqali amalga oshirilgan investitsiya operatsiyalaridan barqaror passiv daromad manbasini shakllantirish imkonini beradi"⁶.

O'zbek iqtisodchi olimlaridan O. Xamdamov ham investorlarning fond bozorida duch kelishi mumkin bo'lgan risklar, ularning sabablari va oqibatlari xususida tadqiqotlar olib borgan. U quyidagi fikrni bildiradi: "Jahon iqtisodiyotini prognoz qilish nuqtayi nazaridan eng murakkab segmentlardan biri – bu jahon moliya bozori hisoblanadi. Shubhasiz, boshqa segmentlar ham o'ziga xos murakkablikka ega, biroq moliya bozori yuqori darajadagi ta'sirchanlik va tebranuvchanlik bilan ajralib turadi⁷. Bunga yaqqol misol sifatida 2024-yil 5-avgustdagi (trejderlar tili bilan aytganda) 'qora' kunni keltirish mumkin. O'sha kuni Osiyo fond bozorlari keskin pasayishga uchradi, bu esa Yaponiya moliyaviy regulyatori tomonidan asosiy foiz stavkasining oshirilishi bilan bir vaqtda yuz berdi. Shu kunning o'zida Nikkei indeksi 13,5 foizga pasaydi va natijada aksiyalar bozorida jiddiy qulash holatlari kuzatildi. Bu kabi keskin pasayish oxirgi bor 1987-yilda kuzatilgan edi. Keyinchalik AQSH iqtisodiyoti bo'yicha xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'lon qilingan hisobotlar jahon fond bozorida salbiy 'signal' sifatida talqin etila boshlandi".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlar xalqaro fond birjalari hisobotlari, moliyaviy statistik bazalar va yetakchi brokerlik kompaniyalari tahliliy sharhlari asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar dinamik tahlil, grafik vizualizatsiya va tavsifiy statistik usullar orqali qayta ishlanib, investorlar xatti-harakatlaridagi tendensiyalar va bozor o'zgarishlariga nisbatan reaksiyalar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

4 <https://www.berkshirehathaway.com>

5 Bayadyan, A., Baghdasaryan, A. (2017). Problems of Development and Integration of the Securities Market in the Countries of the EAEU. INTERNATIONAL ORGANISATIONS RESEARCH JOURNAL. 12(4), pp. 91-108.

6 Abuselidze, G. (2013). Undeveloped equity market as a factor preventing foreign investments (Georgia as an example). Ekonomichniy analiz, 12(1).

7 Xamdamov O.N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining joriy tendensiyalari va prognozlari. MOLIYA №1, 2025-yil. 192-199 bet (08.00.00, №12).



Fond bozori faoliyati aniq mexanizmga asoslangan bo'lsa-da, unda qatnashuvchilar o'ziga xos strategiyalar bilan ish yuritadilar. Shu sababli fond bozoriga kiruvchi har bir investordan, birinchi navbatda, iqtisodiy bilim, tashqi axborotlardan xabardorlik va savdolariga nisbatan ruhiy barqarorlik talab etiladi.

Har bir investor sotib olgan aksiyalari doirasida bozor risklariga taalluqli hisoblanadi. Ya'ni, ularning hech qanday harakatisiz hisob raqamlarida saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar, ayniqsa aksiyalar narxi, pasayishi yoki ko'tarilishi mumkin. Tashqi va ichki omillar ta'sirida kompaniya aksiyalari narxining o'zgaruvchanligi investorlarni xavotirga soladi va ular o'z hisob raqamlaridagi aksiyalarni zarar ko'rmasdan yoki imkon qadar kam zarar bilan sotishga intiladilar.

Bunday sharoitda aksariyat investorlar bir xil ruhiy holatga tushib qoladilar va natijada bozorda sarosimali vaziyat yuzaga keladi. Buning oqibatida aksiyalar narxi juda tez pasayadi. Bugungi kundagi moliya bozori ham xuddi shunday vaziyatni boshdan kechirmoqda, deyish mumkin. Buni xalqaro indekslarning bozor savdolaridagi tendensiyalarida yaqqol ko'rish mumkin.

Masalan, xalqaro miqyosdagi aksiyalarning umumiy narx o'zgarishlarini o'zida aks ettiruvchi xalqaro indekslar 2024-yil oxiri va 2025-yilning birinchi choragi davomida nobarqaror holatda bo'ldi. Ayniqsa, so'nggi oylarda xalqaro indekslarning –5 foizdan –10 foizgacha tebranishi investorlar orasida xavotirni kuchaytirmoqda (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro indekslar tahlili⁸.

S&P500						
Davr	Narx ochilishi	Maksimum narx	Minimum narx	Narx yopilishi	Savdo hajmi	Foizda o'zgarishi
2024 dekabr	6 040.11	6 099.97	5 832.30	5 881.63	86 064 900 000	-2.50%
2025 yanvar	5 903.26	6 128.18	5 773.31	6 040.53	88 639 380 000	+2.70%
2025 fevral	5 969.65	6 147.43	5 837.66	5 954.50	92 317 000 000	-1.42%
2025 mart	5 968.33	5 986.09	5 488.73	5 611.85	111 387 270 000	-5.75%
Nasdaq100						
2024 dekabr	19 255.43	20 204.58	19 168.38	19 310.79	159 134 440 000	+0.48%
2025 yanvar	19 403.90	20 118.61	18 831.91	19 627.44	161 608 850 000	+1.64%
2025 fevral	19 215.38	20 110.12	18 372.99	18 847.28	150 047 820 000	-3.97%
2025 mart	18 923.36	18 992.30	16 854.37	17 299.29	158 800 650 000	-8.21%
2024 dekabr	44 925.86	45 073.63	42 146.33	42 544.22	10 249 910 000	-5.27%
2025 yanvar	42 660.09	45 054.36	41 844.89	44 544.66	12 074 770 000	+4.70%
2025 fevral	44 268.15	44 966.63	43 100.87	43 840.91	10 732 680 000	-1.58%
2025 mart	43 900.49	44 033.78	40 661.77	42 001.76	13 790 900 000	-4.20%

Yuqoridagi jadvalda 2024-yil dekabrda 2025-yil martgacha bo'lgan davr ichida uchta yirik xalqaro fond indekslari – "S&P 500", "Nasdaq 100" va "Dow Jones" ko'rsatkichlarining har oylik o'zgarishlari, narx dinamikasi hamda savdo hajmlari aks ettirilgan. Bu indekslar kapital bozorining umumiy holatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular investorlar kayfiyati, iqtisodiy prognozlar va geosiyosiy vaziyatlarga juda sezgir tarzda javob qaytaradi.

Quyida ushbu indekslarning har bir oyda qanday harakat qilgani va bu o'zgarishlarga sabab bo'lgan asosiy omillar tahlil qilinadi.

8 <https://finance.yahoo.com> va <https://www.investing.com> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



2024–yil dekabr oyida “S&P 500” indeksi –2,50 % ga pasaydi. Bu davrda AQSHda Federal zaxira tizimining (FED) foiz stavkalarini oshirishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu investorlar orasida xavotir uyg'otdi. 2025–yil yanvar oyida esa indeks +2,70 % ga o'sdi, bu esa iqtisodiy ishonch tiklana boshlaganidan dalolat beradi. Ushbu ijobiy harakat ehtimoliy foiz stavkalarining pasayishi yoki yumshatilgan pul-kredit siyosati bilan izohlanadi. Biroq fevral oyida –1,42 %, mart oyida esa yanada keskin – ya'ni –5,75 % ga tushgan. Bu esa yanvarda shakllangan ijobiy kayfiyat barqaror bo'lmaganini anglatadi. Martdagi katta pasayish ehtimol iqtisodiy o'sish prognozlarining yomonlashuvi, geosiyosiy keskinliklar (masalan, Xitoy–Tayvan mojarosi yoki Rossiyaga nisbatan sanksiyalar), shuningdek, kompaniyalarning past daromadli moliyaviy hisobotlari bilan bog'liq.

“Nasdaq 100” indeksi, asosan, texnologik kompaniyalarni o'z ichiga oladi. 2024–yil dekabr va 2025–yil yanvar oylarida bu indeks mos ravishda +0,48 % va +1,64 % ga oshgan. Bu texnologik sektorning o'sib borayotgan rentabelligi, sun'iy intellekt sohasidagi yangi innovatsiyalar va investorlar orasidagi optimistik kutishlar bilan bog'liq. Biroq 2025–yil fevral va mart oylarida indeks mos ravishda –3,97 % va –8,21 % ga tushdi. Bu esa texnologik kompaniyalar daromadlarining prognozlardan past chiqishi, texnologik pufak xavfi yoki sohadagi yangi tartibga solishlarning kuchaytirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xususan, Microsoft, Nvidia yoki Tesla kabi yirik kompaniyalar daromadlarida pasayish kuzatilgan.

“Dow Jones” sanoat indeksining 2024–yil dekabrda –5,27 % ga pasaygani iqtisodiyotdagi beqarorlikni aks ettiradi. Ushbu indeks sanoat, energetika va moliyaviy sektorlardagi yirik kompaniyalarni qamrab oladi va iqtisodiy fundamentallarga juda sezgir. 2025–yil yanvarda esa +4,70 % ga keskin o'sish kuzatildi, bu esa yangi yilda iqtisodiy faollikning oshganini yoki hukumat tomonidan qabul qilingan fiskal rag'batlantirish choralari bozor tomonidan ijobiy qabul qilinganini anglatadi. Biroq fevralda –1,58 %, martda esa –4,20 % ga pasayish kuzatildi. Bu pasayishlar ishlab chiqarish sektoridagi prognozlarning salbiylashuvi yoki global ta'minot zanjiridagi uzilishlar bilan bog'liq.

2025–yilning dastlabki uch oyi kapital bozorlarida kuchli tebranishlar bilan kechmoqda. Barcha asosiy indekslar ayniqsa mart oyida katta miqdorda pasaygan. Bu investorlar orasida noaniqlik va ehtiyotkorlik kayfiyatining kuchayganidan dalolat beradi. Bunday vaziyatga xalqaro siyosiy tangliklar, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, foiz stavkalariga oid noaniqliklar va korporativ daromatlardagi salbiy dinamikalar sabab bo'lmoqda. Shuningdek, investorlar ehtimoliy resessiya xavfini ham jiddiy e'tiborda ushlab turibdi.

Bozor pasayishi fonida bir qator kompaniyalar aksiyalari kunlik keskin tushishga duch kelmoqda. Narxlarning ketma-ket pasayishidan xavotirlangan investorlar aksiyalarni yanada katta zarar ko'rmasdan sotishga harakat qilmoqda. Bu esa bozor ishtirokchilari orasida sarosima uyg'otib, ayrim aksiyalarning narxlariga hech qanday fundamental omillarsiz ham ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, aynan psixologik omillar fond bozoridagi asosiy tebranish manbasiga aylanmoqda (2-jadval).

2-jadval. NVIDIA kompaniyasi aksiyalarining tebranishi⁹.

Sanalar	Narxi ochilish	Maksimum narx	Minimum narx	Narx yopilishi	Savdo Hajmi	Foizda o'zgarishi
25.03.2025	120.54	121.29	118.92	120.69	167,447,198	-0.59%
26.03.2025	118.73	118.84	112.71	113.76	296,431,667	-5.74%
27.03.2025	111.35	114.45	110.66	111.43	236,902,055	-2.05%
28.03.2025	111.49	112.87	109.07	109.67	229,872,549	-1.58%
31.03.2025	105.13	110.96	103.65	108.38	299,212,653	-1.18%
01.04.2025	108.51	110.20	106.47	110.15	222,614,034	1.63%
02.04.2025	107.29	111.98	106.79	110.42	220,601,243	0.25%
03.04.2025	103.51	105.63	101.60	101.80	338,769,412	-7.81%
04.04.2025	98.91	100.13	92.11	94.31	532,273,810	-7.36%
07.04.2025	87.46	101.75	86.62	97.64	611,041,347	3.53%
08.04.2025	103.81	105.85	94.46	96.30	476,243,392	-1.37%
09.04.2025	98.89	115.10	97.53	114.33	612,918,336	18.72%
10.04.2025	109.37	110.86	99.15	107.57	437,812,353	-5.91%
11.04.2025	108.50	111.55	107.48	110.93	313,417,265	3.12%
14.04.2025	114.11	114.29	109.07	110.71	264,705,049	-0.20%

Yuqoridagi jadval 2025–yil 25–martdan 14–aprelgacha bo'lgan davrda NVIDIA kompaniyasi aksiyalari narxlarining o'zgarishini aks ettiradi. Shu davr mobaynida kompaniya aksiyalari sezilarli tebranishlarga duch

⁹ <https://finance.yahoo.com> va <https://www.investing.com> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



kelgan bo'lib, bu holat investorlar orasidagi noaniqlik, texnologik sektorga bo'lgan talabning pasayishi yoki bozorni qamrab olgan umumiy xavotirlar bilan izohlanadi.

25-mart kuni narx nisbatan barqaror bo'lgan (–0,59 % o'zgarish), biroq keyingi kunlarda aksiyalar keskin pasayishni boshlagan. Xususan, 26-mart (–5,74 %) va 27-mart (–2,05 %) kunlari kuzatilgan pasayish ehtimol kompaniyaning salbiy moliyaviy ko'rsatkichlari yoki yarimo'tkazgichlar sohasidagi global talabning susaygani haqidagi xabarlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, 28-martdan 1-aprelgacha bo'lgan davrda ham pasayish davom etgan. Bu esa texnologik sektorda xavotirli kayfiyat ustunligini ko'rsatadi.

Ammo 2-aprel kuni bozor ijobiy yangiliklarga javob bergan – narx +0,25 % ga oshgan. Bu o'zgarish, ehtimol, qisqa muddatli ijobiy axborotlar (masalan, yangi chip relizi yoki hamkorlik shartnomasi) bilan bog'liq bo'lgan. Biroq 3-aprel kuni –7,81 % ga keskin pasayish yuz bergan. Bu investorlar ishonchining yana susayganidan va kompaniya uchun muhim texnik qo'llab-quvvatlash darajasi buzilganidan dalolat beradi.

7-aprel kuni +3,53 % ijobiy o'sish qayd etilgan bo'lsa-da, 8–10-aprel kunlari aksiyalar narxi yana pasaygan. Bu holat bozor xavotirlari to'liq bartaraf bo'lmaganini ko'rsatadi.

9-aprel kuni esa NVIDIA aksiyalari narxining +18,72 % ga keskin o'sishi kuzatilgan. Bu o'ziga xos voqea bo'lib, bir nechta muhim omillar bilan bog'liq:

- Birinchidan, kompaniya yangi AI chiplarini taqdim etdi. Jumladan, "Blackwell" arxitekturasi asosidagi yangi avlod grafik protsessorlari (GPU) sun'iy intellektni o'qitish va inferensiya jarayonlarida sezilarli samaradorlikni ta'minlashi bilan ajralib turadi. Investorlar bu yangilikni kompaniyaning bozor ustunligini mustahkamlovchi burilish nuqtasi sifatida baholashdi.

- Ikkinchidan, Microsoft, Amazon, Meta va Google kabi texnologiya gigantlarining ushbu chiplarga katta buyurtmalar bergani e'lon qilindi. Bu esa kompaniyaning kelajakdagi daromadlariga nisbatan yuqori kutishlarni shakllantirdi.

- Uchinchidan, NVIDIA o'zining choraklik moliyaviy hisobotida kutilgan daromad prognozidan yuqoriroq natijalarni e'lon qildi. AI sohasidagi yuqori talab tufayli kompaniya savdo hajmini sezilarli darajada oshirgan.

14-aprelga kelib, aksiyalar narxi nisbatan barqaror holatga qaytgan bo'lsa-da, umumiy trend zaifligicha qolmoqda. Ushbu tebranishlar texnologik kompaniyalarga nisbatan investorlar ishonchining pasayganini va fond bozorida umumiy volatillikning kuchayganini anglatadi. Sun'iy intellekt, chip ishlab chiqarish, shuningdek geosiyosiy xavf-xatarlar bilan bog'liq yangiliklar NVIDIA aksiyalari dinamikasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Masalan, "DeepSeek" texnologiyasi haqida xabar tarqalganidan so'ng qisqa muddat ichida NVIDIA va boshqa texnologik kompaniyalar aksiyalarida o'sish kuzatilgan. Biroq bozorning keyingi holati aksiyalar narxining yana pasayishiga olib kelgan. Bu kabi o'zgaruvchanlik holatlari TESLA kabi yirik texnologik korporatsiyalar tomonidan ham tajribadan o'tkazilmoqda (1-rasm).



1-rasm. TESLA kompaniyasi aksiyalarining o'zgarish dinamikasi¹⁰ (2025-yil aprel oyining birinchi yarmi).

Ushbu diagramma 2025-yil aprel oyining birinchi yarmida Tesla kompaniyasi aksiyalarining o'zgarish dinamikasini ko'rsatadi. 1-aprel kuni aksiya narxi 268,46 dollar bo'lgan bo'lsa, 2-aprelga kelib u keskin ko'tarilib,

10 <https://www.tesla.com>



282,76 dollarga yetgan. Bu o'sish ehtimol kompaniyaning ijobiy moliyaviy hisobotlari, yangi mahsulot taqdimoti yoki innovatsion yangiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Biroq 3-apreldan boshlab keskin pasayish boshlangan: 267,28 (3-aprel), 239,43 (4-aprel) va 221,86 dollargacha (8-aprel). Bu kabi pasayishlar ehtimol investorlar orasida ishonchsizlik paydo bo'lishi, kompaniya rahbariyatiga oid salbiy yangiliklar yoki global iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan.

9-aprel kuni aksiya narxi yana keskin oshib, 272,20 dollarga yetgan. Bu holat, ehtimol, kompaniya tomonidan e'lon qilingan ijobiy prognozlar, yangi shartnomalar yoki investorlarning ishonchining tiklanishi bilan bog'liq. Shundan so'ng, 10–14-aprel oralig'ida aksiya narxi barqarorlashib, 252,40 va 252,35 dollar atrofida saqlanib qolgan. Bu vaziyat bozorning nisbatan tinchlashganini va investorlarning ehtiyotkorona yondashuvini ko'rsatadi.

Aksiyalar narxining bu kabi o'zgarishlari investorlarning psixologik holati, bozorning umumiy dinamikasi hamda kompaniyaning ichki faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Narxlarning pasayishi kompaniyaga sarmoya kiritishni rejalashtirayotganlar uchun xavfli signal bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, qisqa muddatli pasayishlardan foyda olishni istagan investorlar uchun imkoniyat ham hisoblanadi. Narxlarning keskin o'zgarishi kompaniya obro'siga, xodimlar motivatsiyasiga va strategik rejalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, kompaniya aksiyalar narxidagi har bir o'zgarishni sinchkovlik bilan tahlil qilib borishi muhimdir.

2025-yil aprel oyining birinchi yarmida Tesla aksiyalari narxidagi pasayish nafaqat kompaniyaning ichki omillari, balki global siyosiy va iqtisodiy voqealarga ham bevosita bog'liq bo'ldi. Xususan, AQSH Prezidenti Donald Tramp tomonidan ishlab chiqilgan yangi boj siyosati ko'plab texnologik kompaniyalar, jumladan Tesla uchun ham salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Tramp tomonidan Xitoydan import qilinadigan elektrotexnika qismlariga nisbatan boj stavkalarining dastlab 15 foizdan 30 foizgacha, keyinchalik esa undan ham yuqori darajalarga oshirilishi Tesla kompaniyasining ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa investorlar orasida xavotir uyg'otib, aksiyalarni sotishga undadi va natijada ularning narxi pasaydi.

Bundan tashqari, kompaniya rahbari Ilon Maskning siyosiy maydondagi faol harakatlari ham investorlar orasida qarama-qarshi munosabatlarga sabab bo'ldi. Ayrim yirik sarmoyadorlar bunday pozitsiyani xavfli deb hisoblab, Tesla aksiyalaridan voz kecha boshladilar. Siyosiy beqarorlik va noaniqlik esa investorlar uchun har doim katta xavf omili hisoblanadi. Bu holat Tesla aksiyalarida yaqqol aks etdi.

Ushbu omillar fonida Tesla aksiyalari narxi 282,76 dollardan 221,86 dollargacha pasaydi. Bu holat kompaniya obro'siga, moliyaviy ko'rsatkichlariga va investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bugungi kunda fond bozorida beqaror va tahlikali vaziyat brokerlar hamda dilerlar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bozordagi keskin o'zgarishlar, yirik kompaniyalar aksiyalarining pasayishi, geosiyosiy xavflar va siyosiy qarorlar, xususan boj siyosatlarining keskinlashuvi, ularning ish uslublarini yangilash va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Brokerlar, ya'ni mijoz nomidan fond bozorida savdo qiluvchi vositachilar, bugungi kunda mijozlarga ko'proq maslahat beruvchi va risklarni tahlil qiluvchi maslahatchi sifatida faoliyat olib bormoqda. Ular investorlarning ehtimoliy zararini kamaytirish uchun xavfsiz aktivlar – jumladan obligatsiyalar, oltin yoki diversifikatsiyalangan fondlarga sarmoya yo'naltirishni tavsiya etmoqda. Shuningdek, ko'pchilik brokerlar real vaqt rejimida bozor monitoringini olib borib, mijozlarga qisqa muddatli savdo strategiyalarini ishlab chiqishda yordam bermoqda.

Dilerlar esa o'z hisobidan savdo qiluvchi ishtirokchilar bo'lib, bugungi sharoitda yuqori volatillikdan foyda olishga harakat qilmoqdalar. Ular qisqa muddatli narx o'zgarishlaridan foyda olish uchun aktivlarni tez-tez sotib olib–sotish uslubini qo'llashmoqda. Shu bilan birga, dilerlar ham riskni kamaytirish maqsadida xedjing strategiyalaridan foydalanmoqda.

Umuman olganda, bugungi fond bozorida broker va dilerlarning asosiy e'tibori – bozor tebranishlarini tezda tahlil qilish, mijozlar uchun mos strategiyalarni ishlab chiqish va maksimal darajada xavflarni kamaytirishga qaratilgan. Ularning bilim va tajribasi ayni paytda investorlar uchun muhim tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, fond bozorida asosiy zarar odatda investorlar zimmasiga tushadi. Broker va dilerlarning esa moliyaviy risklardan chiqib ketish imkoniyatlari ancha yuqori bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fond bozorida bugungi tahlikali va beqaror vaziyatda investorlarning ehtiyotkorlik bilan harakat qilishlari nihoyatda muhim. Bozor keskin o'zgaruvchan holatda bo'lganligi sababli, quyidagi strategiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Diversifikatsiya qilish – sarmoyalarni birgina kompaniya yoki sektor bilan cheklab qo'ymaslik zarur. Turli sanoat tarmoqlari va geografik hududlardagi aktivlarga sarmoya kiritish orqali risklar kamaytiriladi.

Uzoq muddatli strategiyaga sodiqlik – qisqa muddatli tebranishlarga ortiqcha e'tibor qaratmaslik, uzoq muddatli maqsadlarga sodiqlik saqlash ko'proq natija beradi. Bozor beqarorligi ko'pincha vaqtinchalik bo'ladi.



Bozor tahlilini doimiy kuzatish – siyosiy va iqtisodiy yangiliklardan xabardor bo'lish, xususan boj stavkalari, foiz stavkalari va inflyatsiya bilan bog'liq voqealarni o'rganish muhim.

Likvidlikni saqlash – favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish imkonini beruvchi likvid aktivlarga ega bo'lish (naqd pul yoki tez sotiladigan aktivlar) zarur.

Emotsional qarorlardan saqlanish – vahimaga tushib aktivlarni arzon narxda sotish o'rniga, asosli va tahliliy yondashuv asosida qaror qabul qilish foydalidir.

Fond bozorida bugungi o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, bozor beqarorligi investorlar uchun jiddiy sinov davriga aylangan. 2025–yilning birinchi choragida moliyaviy bozorlarda kuzatilgan keskin tebranishlar investorlarni ehtiyotkor bo'lishga undamoqda. Ayniqsa, texnologik kompaniyalar aksiyalaridagi pasayish fonida investorlar risklarni aniq baholash va real sharoitga mos strategiyalar ishlab chiqish zarurligini anglab yetmoqdalar.

Ikkinchidan, siyosiy omillar moliya bozorlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Donald Trampning boj siyosati hamda geosiyosiy keskinliklar global moliya bozorlarining barqarorligiga tahdid solmoqda. Xususan, Xitoy bilan bo'lgan boj masalalari texnologik kompaniyalar, jumladan Tesla va NVIDIA kabi yirik brendlar aksiyalarining keskin pasayishiga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, investor psixologiyasi aksiyalar narxlariga bevosita ta'sir qilmoqda. Bozordagi umumiy sarosima kayfiyati tufayli ko'plab sarmoyadorlar xavfsiz aktivlarga o'ta boshlagan. Bu holat aksiyalarni ommaviy sotishga olib kelib, narxlarning sun'iy tushishiga sabab bo'lmoqda.

To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar sarmoya jarayonini soddalashtirgan bo'lsa-da, risklarni kamaytirgani yo'q. Bozorga kirish osonlashgan, biroq investorlar hali ham puxta bilim va strategiyalarga ega bo'lishlari shart. Tezkor savdo jarayonlari noto'g'ri qarorlar qabul qilish ehtimolini oshiradi.

Beshinchidan, fond bozori yangi inqiroz bosqichiga kirgan. 2025–yilgi holat 2008–yil va 2020–yillardagi moliyaviy inqirozlar bilan ma'lum jihatdan o'xshashlik kasb etmoqda. Xalqaro indeksning pasayishi global moliyaviy risklarning kuchayganidan dalolat bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. George Abuselidze, Doctor of Economics/Professor; Anna Slobodanyk, PhD in Economics Batumi Shota Rustaveli State University, Georgia; National University of Life and Environmental Sciences of Ukraine, Ukraine.
2. Abuselidze, G. (2013). Undeveloped equity market as a factor preventing foreign investments (Georgia as an example). *Ekonomichnyy analiz*, 12(1).
3. Bayadyan, A., Baghdasaryan, A. (2017). Problems of Development and Integration of the Securities Market in the Countries of the EAEU. *INTERNATIONAL ORGANISATIONS RESEARCH JOURNAL*. 12(4), pp. 91-108.
4. Xamdamov O.N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining joriy tendensiyalari va prognozlari. *MOLIYA* №1, 2025–yil. 192-199 bet (08.00.00, №12).
5. <https://data.worldbank.org>
6. <https://www.sifma.org>
7. <https://finance.yahoo.com>
8. <https://www.investing.com>
9. <https://www.tesla.com>
10. <https://www.berkshirehathaway.com>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>